

Jizzax viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga


- I.** Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

Jizzax viloyatida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlari maqbullashtirilgan: professional maktablar va kollejlarda texnikumlar, shuningdek, maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni **3 tani** tashkil etgan va so'nggi besh yil davomida o'zgarishsiz qolgan.

Texnikumlar soni esa, aksincha, 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **2,8 barobarga**, yoki **25 taga** oshgan va 2025/2026- o'quv yili boshiga **36 tani** tashkil etgan. Mazkur o'zgarishlar kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarining maqbullashtirilganligi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ilgari o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy sonida hisobga

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

olingan professional maktablar va kollejlar texnikumlar hamda boshqa ta'lim tashkilotlariga aylantirilgan.

**Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonining shahar (tumanlar) kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar		Texnikumlar	
	Jami	umumiy soniga nisbatan % da	Jami	umumiy soniga nisbatan % da
Jizzax viloyati	3	100	36	100
Jizzax shahar.	3	100	5	13,8
tumanlar:				
Arnasoy	-	-	1	2,7
Baxmal	-	-	4	11,1
G'allarol	-	-	5	13,9
Sharof Rashidov	-	-	5	13,9
Do'stlik	-	-	1	2,8
Zomin	-	-	6	16,7
Zarbdor	-	-	2	5,6
Zafarobod	-	-	-	-
Mirzacho'l	-	-	2	5,6
Paxtakor	-	-	3	8,3
Forish	-	-	1	2,8
Yangiobod	-	-	1	2,8

Akademik litseylarning eng ko'p soni Jizzax shahri (**3 ta**), tumanlarida qayd etilgan. Texnikumlar soni bo'yicha esa Zomin (**6 ta**), Sharof Rashidov (**5 ta**) va G'allarol (**5 ta**) Jizzax shahar (5) tumanlari yetakchilik qilgan.

Boshqa tumanlarga nisbatan . Texnikumlarning eng kam soni ham Arnasoy (**1 ta**), Forish (**1 ta**) va Yangiobod (**1 ta**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Jizzax viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha umumiy o'sish kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **11,3 ming nafarga**, yoki **4,2 % ga** oshgan va **14,8 ming nafarni** tashkil etgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni (tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan o'zgarishsiz **0,8 ming nafarni** tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgan tarkibiy o'zgarishlar munosabati bilan texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa oldingi o'quv yiliga nisbatan **4 barobarga**, yoki **11,3 ming nafarga** oshgan va **14,8 ming nafarga** yetgan.

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

**Qabul qilingan o'quvchilar
sonining shahar (tumanlar) kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Jizzax viloyati	0,826	0,308	0,518	14,828	7,756	7,072
Jizzax shahar.	0,826	0,308	0,518	2,447	1,396	1,051
tumanlar:						
Arnasoy	-	-	-	0,151	0,065	0,086
Baxmal	-	-	-	1,081	0,473	0,608
G'allarol	-	-	-	1,871	0,97	0,901
Sharof Rashidov	-	-	-	2,898	1,316	1,582
Do'stlik	-	-	-	0,405	0,386	0,019
Zomin	-	-	-	2,431	1,387	1,044
Zarbdor	-	-	-	0,665	0,245	0,420
Zafarobod	-	-	-			-
Mirzacho'l	-	-	-	0,916	0,467	0,449
Paxtakor	-	-	-	1,33	0,792	0,538
Forish	-	-	-	0,366	0,172	0,194
Yangiobod	-	-	-	0,267	0,087	0,180

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilarning eng yuqori soni Jizzax shahri (**0,826 ming nafar**), qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilarning eng yuqori qismi esa Sharof Rashidov (**2,898 ming nafar**), Zomin (**2,431 ming nafar**) va G'allarol (**1,871 ming nafar**) tumanlarida kuzatilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan Texnikumlarga qabul qilinganlar sonining eng past ko'rsatkichi Arnasoy (**0,151 ming nafar**), Yangiobod (**0,267 ming nafar**) tumanlarida qayd etilgan.

Jizzax shahar akademik litseylarga qabul qilingan o'g'il bolalar (62,71 %) va qiz bolalar ulushi (37,29 %) **ni** tashkil etgan. Do'stlik (**4,97%**) va Mirzacho'l (**6,02 %**) texnikumlarga qabul qilingan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Texnikumlarga qabul qilingan qiz bolalarning eng past ulushi Arnasoy tumanida qayd etilgan **0,83 % ni** tashkil etgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni (jami)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Jizzax viloyatida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar umumiy sonining o'sishi kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga ularning soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **15,9 ming nafarga**, ya'ni **2,8 % ga** oshgan va **24,3 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni **1,5 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan o'zgarishsiz. 2025/2026- o'quv yili boshiga texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni **24,3 ming nafarni** tashkil etgan va **15,9 ming nafarga**, yoki **2,8 barobarga** oshgan.

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonining shahar (tumanlar) kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Jizzax viloyati	1,587	0,623	0,964	24,308	13,655	10,653
Jizzax shahar.	1,587	0,623	0,964	4,227	2,652	1,575
tumanlar:						
Arnasoy	-	-	-	0,302	0,111	0,191
Baxmal	-	-	-	1,758	0,706	1,052
G'allarol	-	-	-	3,144	1,753	1,391
Sharof Rashidov	-	-	-	4,534	2,317	2,217
Do'stlik	-	-	-	0,892	0,846	0,046
Zomin	-	-	-	3,984	2,505	1,479
Zarbdor	-	-	-	1,083	0,398	0,685
Zafarobod	-	-	-			
Mirzacho'l	-	-	-	1,303	0,672	0,631
Paxtakor	-	-	-	2,157	1,338	0,819
Forish	-	-	-	0,507	0,217	0,29
Yangiobod	-	-	-	0,417	0,14	0,277

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni Jizzax shahrida (**1,587 ming**) qayd etilgan. Texnikumlardagi o'quvchilarning eng yuqori soni esa Sharof Rashidov (**4,534 ming**), Jizzax shahar (**4,227 ming**) va Zomin (**3,984 ming**) tumanlarida kuzatilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan Texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng past soni Arnasoy (**0,302 ming**), Yangiobod (0,417) va Forish (**0,507 ming nafardan**) tumanlarida qayd etilgan.

Jizzax shahar akademik litseylarda tahsil olayotgan o'g'il bolalar ulushi (**60.74%**) qiz bolalar ulushi (**39.26%**) dan yuqori bo'lgan.

Texnikumlar bo'yicha esa Jizzax shahri (**19,4 %**), Zomin (**18,34 %**) va Sharof Rashidov (**16,97 %**) tumanlarida o'qiyotgan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Mirzacho'l (**4,92 %**) va Do'stlik (**6,19 %**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni (jami)

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni (jami)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

Jizzax viloyatida 2025- yilda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari umumiy soni **7,3 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan **4,7 ming nafarga**, ya'ni **2,8 % ga** oshgan.

Bitiruvchilar soni (tegishli yil uchun, ming kishi)



2025- yilda akademik litseylarning bitiruvchilari soni **0,8 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan. Texnikumlarning bitiruvchilari soni esa **4,7 ming nafarni** tashkil etgan va **7,3 ming nafarga**, ya'ni qariyb **3 barobarga** oshgan.

Bitiruvchilar sonining shahar (tumanlar) kesimida taqsimlanishi (2025- yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Jizzax viloyati	0,695	0,27	0,425	7,047	4,211	2,836
Jizzax shahar.	0,695	0,27	0,425	1,093	0,598	0,495
tumanlar:						
Arnasoy	-	-	-	0,151	0,057	0,094
Baxmal	-	-	-	0,726	0,393	0,333
G'allarol	-	-	-	0,738	0,347	0,391
Sharof Rashidov	-	-	-	1,222	0,745	0,477
Do'stlik	-	-	-	0,183	0,167	0,016
Zomin	-	-	-	1,182	0,89	0,292
Zarbdor	-	-	-	0,406	0,14	0,266
Zafarabod	-	-	-	-	-	-
Mirzacho'l	-	-	-	0,49	0,385	0,105
Paxtakor	-	-	-	0,601	0,41	0,191
Forish	-	-	-	0,127	0,034	0,093
Yangiobod	-	-	-	0,128	0,045	0,083

Akademik litseylar bitiruvchilari soni Jizzax shahrida (**0,695 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng yuqori soni esa Sharof Rashidov (**1,222 ming nafar**), Jizzax shahar (**1,093 ming nafar**) va G'allarol (**0,738 ming nafar**) tumanlarida kuzatilgan. Texnikumlar

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

bitiruvchilarining eng past ko'rsatkichlari esa Mirazcho'l (**0,49 ming nafar**), Forish (**0,127 ming nafar**) tumanlari va Yangiobod (**0,128 ming nafar**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)


[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshiga Jizzax viloyatining o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) umumiy soni **1 213 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **836 nafarga**, ya'ni **3,2 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni

(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **146 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **4 nafarga**, ya'ni **4,7 % ga** kamaygan. Shuningdek, texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining sezilarli o'sishi kuzatilgan. Ularning soni **1 213 nafarni** tashkil etgan va **836 nafarga**, ya'ni **2,217 barobarga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining shahar (tumanlar) kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	ayollar	erkaklar	jami	ayollar	erkaklar
Jizzax viloyati	146	84	62	1213	656	557
Jizzax shahar.	146	84	62	270	170	100
tumanlar:						
Arnasoy	-	-	-	27	12	15
Baxmal	-	-	-	88	31	57
G'allarol	-	-	-	156	85	71
Sharof Rashidov	-	-	-	192	102	90
Do'stlik	-	-	-	35	17	18
Zomin	-	-	-	192	135	57
Zarbdor	-	-	-	60	20	40
Zafarobod	-	-	-	-	-	-
Mirzacho'l	-	-	-	60	28	32
Paxtakor	-	-	-	73	41	32
Forish	-	-	-	32	11	21
Yangiobod	-	-	-	28	4	24

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng ko'rsatkichi Jizzax shahri (**146 nafar**) qayd etilgan. Texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko'rsatkichlari esa Jizzax shahar (**270 nafar**), Zomin (**3192 nafar**) va Sharof Rashidov (**192 nafar**) tumanlarida kuzatilgan. Texnikumlarda esa eng past ko'rsatkichlar Arnasoy (**27 nafar**), Yangiobod (**28 nafar**) va Forish (**32 nafar**) tumanlarida kuzatilgan.

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) orasida ayollarning ulushi Jizzax shahar (**57,53 %**) kuzatilgan. Texnikumlar bo'yicha Jizzax shahar (**25,91 %**) va Zomin tumanida (**20,57 %**) ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Baxmal tumanida esa erkak o'qituvchilar ulushi (**10,23 %**) ayollar ulushidan (**4,72 %**) yuqori bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar **1 o'rta ta'lim shakli** "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining hisoboti" yillik statistika hisoboti ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining statistika hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni, shuningdek, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistika ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO-2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

